

**BUYUK FRANSUZ INQILOBI G'OYALARINING JAHON IJTIMOYIY-
SIYOSIY JARAYONLARIDAGI O'RNI**

*Ilmiy raxbar. S.f.n. Professor **Rasulov.H.M***

Nurmatova Mohichehra Allayor qizi

*Termiz DPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq talimi yonalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Fransiya yuz bergan buyuk inqilob va o'sha davrda hukmron mafkura haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, hokimiyat tepasida turgan turli oqim vakillarining faoliyatlari keng yoritiladi.*

Kalit so'z: *Fransiya, inqilob, g'oya, konstitutsionalistlar, jirondistlar, yakobinchilar, ideologiya.*

Kirish. Buyuk fransuz inqilobi Fransiya tarixidagi eng muhim voqea bo'lib, davlat boshqaruviga, hukmron sinflarning tuzumiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Boshlangan inqilob sharoitida turli qatlamlarning ziddiyatli kurashlari keskin tus oldi. Sinflar va partiyalarning manfaatlari to'qnashuvi qaqshatqich kurashlarga aylandi. Turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar inqilob davrida yangi siyosiy g'oyalarning shakllanishiga asos bo'ldi. Bu davrda Monteske va Russo qarashlaridan keng foydalana boshlandi. Chunki, inqilob sharoitida ilgari ishlab chiqilgan nazariya va ta'limotlar kishilarni qoniqtirmasdi. Ushbu sharoitda hokimiyatda ham bir qancha o'zgarishlar yuz beradi.

Adabiyotlar tahlili. Fransiya yuz bergan Buyuk fransuz inqilobi davrini, ushbu davrda mavjud bo'lgan hukmron sinflar va ular ilgari surgan qarashlar va g'oyalarni yoritishda H.B. Boboevning "Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi", F. Muhiddinovaning "Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi" asarlaridan foydalanildi. Shuningdek, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asaridan o'tgan asrlarda mavjud bo'lgan tuzum va boshqaruvlardan kerakli namunalar olib, xulosa chiqarish kerakligi haqida asosli fikrlar keltirilgan.



Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada o'rganilayotgan muammo ilmiy tadqiqotning ijtimoiy va qiyosiy tahlil, mantiqiylik, ilmiylik va xolislik metodlari asosida yoritilishiga e'tibor qaratildi.

Tahlillar va natijalar. Dastlab hokimiyat tepasiga monarxiya bilan kelishuvga moyilligi bo'lgan yirik burjuaziya tarafdorlari bo'lishgan konstitutsionalistlar keldi. Ular qirol xalqning birdan- bir vakili bo'lishi kerak deb hisoblashgan va buni 1791- yilda qabul qilingan konstitutsiyada ham ifodalashgan. Ularning bu harakatlari inqilobni yakunlamadi, balki uni yanada kuchaytirdi. Shunday sharoitda hukumat o'rta va yirik burjuaziyasining bir qismi vakillaridan iborat jirondistlar qo'liga o'tdi. Ular esa qirol hokimiyatini inkor qilib respublika boshqaruvini ilgari surishadi. Bu o'z-o'zidan ziddiyatlar kuchayishi sabab bo'ladi. O'zaro kurashlar natijasida Fransiyada inqilobiy hukumat o'rnatildi. Hokimiyat yakobinchilar qo'liga o'tdi. Ularning ko'zga ko'ringan vakillaridan Robespyer va Maratlar burjuaziyachi Russoning qarashlarini yakobinchilar diktaturasining rasmiy mafkurasi darajasiga olib chiqadi. Fransiyada hukumatni egallagan har bir yo'nalishlarning o'z tarafdorlari ham mavjud bo'lib, ular o'zlarining asarlarida qarashlarini bayon qilgan va kishilarni ham unga undashgan. Shunday shaxslardan biri yakobinchilar mafkurachisi Robespyer bo'lib, u o'zining 1793 yil 25 dekabrda Konventda qilgan "Inqilobiy boshqaruvning prinsiplari" nomli ma'ruzasida inqilobning g'alabasi uchun zarur vositalar ustida to'xtalib hamda inqilobning maqsadini belgilab berar ekan va shunga intilgan yakobinchilar haqida jumladan, shunday degan edi: "erkinlik va tenglikdan xotirjam foydalanmoq, adolatning abadiy hukmronligi". Uning fikricha, erkinlik va tenglik barcha fuqarolarga birday talluqli bo'lishi va bunda hech qanday istisno bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Robespyer o'z ustozini Russo izidan borib, bu o'rinda mulkiy tenglikni emas, balki siyosiy tenglikni nazarda tutgan edi. Bu maqsad, uning fikricha, faqat demokratiya sharoitidagina amalga oshirilishi mumkin va Robespyerning siyosiy ideali – Demokratik Respublika edi.

XVIII asr Fransiya siyosiy va huquqiy tafakkur rivojida yana bir ta'limot – bu utopik inqilobiy kommunizm bo'lib, unga "Tenglik uchun fitna" asarining muallifi



Bobyof (1760 – 1797) tomonidan asos solingan. Bu ta'limot mustaqil harakatdan tashkil topgan dastlabki proletariatni o'zida ifoda etar edi. Babyofning fikricha, barcha ijtimoiy falokatlarning sababi hususiy mulkchilikdir. Uning e'tiroficha, dunyodagi barcha falokatlarning sababi mulkchilikdir. Mulkiy tenglik tabiiy tenglikdir. "Tenglar fitnasi" ana shu tenglikni himoya qiladi. Bobyofchilar o'zlarini Robesper davomchilari deb hisoblar edilar. Xususiy mulkchilik yo'q qilinishi inqilobiy hukumat tomonidan amalga oshirilishi lozim edi.

O'tgan asrlar davomida Fransiya tarixida yuz bergan bir qancha voqealar, jumladan Buyuk fransuz inqilobi Fransiya uchun eng og'ir yillar bo'ldi. Ushbu davrda bir tomondan hukumatga kelayotganlarning barchasi turlicha qarashga ega bo'lishadi, ikkinchidan har bir o'z uslublarini boshqaruvga joriy qilishga urinishadi. Bu esa oddiy xalq uchun juda ham og'ir va bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababdan ham mamlakatning barcha hududlarida xalq noroziliklari ham bo'lib turadi.

Xulosa qilib aytganda, Fransiyada bo'lib o'tgan inqilob va uning natijasida hukumatga kelganlar davlatning ma'lum darajada o'zgarishiga olib keldi. Ushbu davrda ilgari surilgan g'oyalar esa keyinchalik ham davlat mafkurasiga o'zining ta'sirini o'tkazdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
3. Godjiev K. S. Politicheskaya filosofiya. M. 1999.
4. Boboev H. B. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. T. 2002.
5. Muhiddinova F. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. T. 2005.
6. Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM VA ILM SOHALARI RIVOJLANISHNING YANGI DAVRIDAGI MUHIM ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 2 (1), 81-88.
7. Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich (2022). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA KONFESSIYALARARO HAMKORLIKNI TA'MINLASH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (12), 1116-1121.



8. Rasulov, H. M. (2024). SIYOSIY VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH—KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ASOSIY OMILI SAFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 5(2), 521-525.
9. Rasulov, H. (2023). HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH—IJTIMOIIY-SIYOSIY MUNOSABATLARNING MUHIM OMIL SIFATIDA. *TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi*, 1(2), 212-218.
10. Расулов, Х. М. (2022). СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАРДА СИЁСИЙ МАДАНИЯТ. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 863-867.
11. Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(11).
12. Ikromovich, P. X. (2023). Jadid ma'rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoit va obektiv zaruriyat. *Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities*, 11(3), 167-179.
13. Xoldor, P. (2024). JADIDCHILIK G 'OYALARI TARG 'IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 281-285.
14. PATIYEV, X. (2024). JADID MA'RIFATPARVARLARI QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TASNIFI. *News of the NUUZ*, 1(1.10. 1), 166-168.
15. Ikromovich, P.K. JADIDIZM HARAKATINING MOHIYINING IJTIMOIIY-FALSAFIY YONDORISHI. *Amerika ijtimoiy fanlar va insoniyat tadqiqotlari jurnali*, 4 (11), 175-181.